

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

I Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 1-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-09-362-3

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sadikov Akramjon

AK-2 ANTIPIREN KOMPOZITSIYASINING ELEKTRON SKANERLOVCHI MIKROSKOR (ESM) VA ELEMENT TAHLILI 5-8

Yusupova Difuza, Maqsudov Nabijon

YUQORI HARORAT TA'SIRIDAN MAXSUS HIMOYA KIIYIMLARINI ISHLAB CHIQRISH UCHUN MATERIALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR..... 9-11

TARIX FANLARI

Xusanov Ximmat

SAAD ZAGLUL BOSHCHILIGIDA MISRLIKLARNING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHI..... 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Икрамов Акбар

СОСТОЯНИЕ И РАЗВИТИЕ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ 15-18

Baxridinova Shaxnozaxon

KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
TEKNOLOGIK INNOVATSIYALARNING O'RNI 19-22

FALSAFA FANLARI

Raxmatov Bekzod

O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIDA MILLIY G'OYA VA
MAFKURANING AHAMIYATI 23-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ibrogimova Dilnoza

DEVONI LUGOTIT-TURK ASARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING
LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI 31-35

Po'latova Lobar

"YANGI DAVR" INFORMATSION DASTURI – O'ZBEKISTON YOSHLARINING AXBOROT
MANBALARIDAN BIRI SIFATIDA..... 36-40

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ 41-47

YURIDIK FANLARI

Qayumberdiyeva Dildora

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEDIATSIYA INSTITUTINI TARTIBGA SOLISH BILAN
BOG'LIQ AYRIM MUAMMOLAR 48-51

PEDAGOGIKA FANLARI

Xamrakulova Kumush

QULAY TA'LIM MUHITI YARATISHDA OTA-ONALAR, MAHALLA VA
MAKTABNING IJTIMOIIY HAMKORLIGI 52-56

Nishanbayeva Nozimaxon

METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING LISTENING IN A DIGITAL EDUCATIONAL
ENVIRONMENT..... 57-61

Jololdinov Asror

KARTOGRAFIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIIY METODIK YONDASHUVLAR VA ULARNING
SAMARADORLIGI 62-67

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PISA TOPSHIRIQLARI ROLI 68-69

TIBBIYOT FANLARI

Мирзахмедова Мухаррам, Атамуратова Айпаршин

ВЛИЯНИЕ СТРОИТЕЛЬНОГО МАТЕРИАЛА ДЕТСКОГО САДА НА ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ 70-72

Abdusalomov Sanjar, Abdusalomov Sunnatulla, Botirov Kamronbek

TISH EMALINING REMINERALIZATSIYA QILISHNING YANGI TEXNOLOGIYA VA USULLARI 73-77

FALSAFA FANLARI

O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANING AHAMIYATI

Raxmatov Bekzod Zafarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Sh.X.Togayev

ChDPU dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning barqaror taraqqiyot mezonlari va tamoyillarini klassifikatsiyalash jamiyat hayotiga, insonlar ongi, tafakkuriga integratik ta'sir etishi hamda g'oya va mafkuralarning rivojlanish tendensiyalari, uning milliy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: g'oya, mafkura, tafakkur, demokratiya, jamiyat, fuqarolik jamiyati, mafkuraviy plyuralizm, milliy g'oya, milliy mafkura, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik.

THE IMPORTANCE OF NATIONAL IDEAS AND IDEOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN

Rakhmatov Bekzod Zafarovich

1st year master's student of Chirchik State Pedagogical University

Scientific supervisor: Sh.Kh.Togayev

Associate professor of Chirchik State Pedagogical University, Ph.D.

Annotation. The article provides a classification of criteria and principles of sustainable development of ideological processes that have an integrative impact on the life of society, the consciousness and thinking of people, as well as trends in the development of ideas and ideologies, its national characteristics.

Key words: idea, ideology, thinking, democracy, society, civil society, ideological pluralism, national idea, national ideology, interethnic harmony, religious tolerance.

Kirish. Bugungi kunda demokratik fuqarolik jamiyatini qurish masalasi dunyo miqyosida umume'tirof etilgan qoida hamda tamoyilga, har bir insonning ma'naviy boyligi va qadriyatiga aylanib bormoqda. Albatta fuqarolik jamiyati qurish tezda amalga oshadigan jarayon emas. Xalqning ongidan joy ololmagan fuqarolik jamiyati odamlar turmush-tarzining tarkibiy qismi bo'la olmaydi. Shu boisdan demokratiyaning ma'lum nazariya va qonuniyatlari, tamoyillari mavjudki, uning tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati to'g'risida bugungi kunda alohida olingan maqola doirasida ilmiy-nazariy o'rganish hamda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda, demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatimizda fuqarolar demokratiyaning milliy va umumbashariy tamoyillarini aniq tasavvur etishlari muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati bu demokratik tafakkurni shakllantirish, milliy-ma'naviy merosimizga hurmat, ular ongida milliy g'urur va milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mafkura masalasidagi ishlarni amalga oshirishda zamonaviy innovatsiyalarni joriy etishga intilishi ham bu sohaga berilayotgan alohida e'tibordan dalolatdir. Buni biz Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi so'zlaridan: "bugun biz davlat va jamiyat hayotini barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"[1, 80], anglab olishimiz mumkin.

Bugungi jadal g'oyaviy hamda mafkuraviy o'zgarishlar sharoitida fuqarolik jamiyati bu, bir yoki bir necha tor doiradagi ijtimoiy-siyosiy guruhlarining, shu jumladan alohida olingan millatlarning manfaatlarinigina emas, balki barcha xalqlarning yuksalishiga xizmat qilishi lozim. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda fuqarolik jamiyati barpo etishda jahon xalqlarining tarixiy tajribalari, xalqimizning boy merosi hamda sharqona turmush tarzimizning o'ziga xosligi, jamiyatimizda har tomonlama yetuk, komil insonlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. G'oyaning jamiyat rivojidagi o'rni, kishilarning hayotiy mo'ljallarini shakllantirishdagi ahamiyati va safarbar etuvchilik qudrati juda qadimdan chuqur anglab yetilgan. "Avestodagi "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasi insonning ma'naviy yuksalishi va jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylangani fikrimizning isbotidir. G'oya, uning mohiyati masalasini o'rganishga falsafiy tadqiqotlarda alohida e'tibor berilgan. Mazkur muammo o'zining dastlabki ilmiy-falsafiy kurinptda qadimgi yunon faylasuflari asarlarida tadqiq qilingan bo'lsada, u o'rta asrlar, yangi davr hamda nemis klassik falsafasi doirasida yanada rivojlantirildi.

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratayotgan xalqimiz uchun bunyodkorlik g'oyalarga asoslangan mafkurani shakllantirish masalasi ziyolilarimiz oldiga davlat va jamoat arbobi I.A.Karimov tomonidan qo'yildi. Shu bilan birga, uning asarlarida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining mazmuni, acociy xususiyatlari, jam'iyat hayotidagi o'rni, g'oyaviy tarbiya oldiga ko'yilayotgan dolzarb vazifalar ijtimoiy-falsafiy va siyosiy nuqtayi nazardan atroflicha tahlil qilingani va izchil rivojlantirib borilganini ta'kidlash zarur. Shuningdek milliy istiqlol g'oyasining mohiyati to'g'risidagi tasavvurlarimizning chuqurlashishi va kengayishiga xizmat qilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Ular qatorida O'.Abilov[2], M.Jakbarov[3], A.Jalolov[4], I.Saifnazarov[5], D.Alimova[6], V.Karimova[7], S.Otamurodov[8], S.Salimov[9], Q.Nazarov[10], J.Ramatov[11], B.To'rayev[12], I.Ergashev[13], A.Erkayev[14], Sh.Tog'ayev[15] kabi olimlarning asarlarini alohida qayd etish lozim.

Muhokama. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach fuqarolik jamiyatini qurish yo'lini tanladi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab jamiyatni g'oyaviy, ma'naviy yo'nalishda isloh qilish muhim strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Eng muhim masala fuqarolik jamiyati qurish va demokratik yangilanishlar yo'lidan borayotgan O'zbekistonning ilgari kommunistik mafkura va g'oyalardan holi bo'lgan milliy g'oya va milliy mafkura masalalarini shakllantirish zarur edi.

Bizning jamiyatimiz fikrlar xilma xilligi ya'ni (mafkuraviy plyuralizm) ga asoslangan jamiyatdir. Aslida **plyuralizm** - borliqning bir necha (yoki ko'plab) mustaqil ibtidosi yoki bilimning bir qancha asosi mavjud deb hisoblovchi falsafiy qarash. Shu bilan birga, manfaatlar, g'oyalar, qarashlarning ham ko'pligini bildiradi. Yanada kengroq ma'noda jamiyat siyosiy tizimining xususiyati. Bunda ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini o'z vakillari (siyosiy partiyalar,

kasaba uyushmalari, diniy va b. tashkilotlar) orqali ifodalash uchun tashkiliy tar-tib-qoida tusini olgan imkoniyatlarga ega buladilar. Jamiyatni demokratiyalash jarayonida plyuralizm shakllanib, rivojlanadi, u ijtimoiy guruhlarining turli-tuman manfaatlarini aks ettiruvchi har xil qarashlar, fikrlar mavjudligini anglatadi[16]. Ma'furaviy plyuralizm esa inson va jamiyat hayotida g'oyalar va mafkuralarning turli tumanligi, ularning amal qilishi, insonlarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari tizimidir.

G'oya va mafkuralar xilma-xilligining sababi, insonlarning turli xil fikr yuritishlari, jamiyat a'zolari har birining tabiat-jamiyat hodisalari, olam va odam to'g'risidagi fikrlari turlichaligi bilan harakterlanadi. Shuningdek, har bir insonning, jamoaning, ijtimoiy qatlam, xalq va millatning, ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos fikrlari va shu asosdagi g'oyalari mavjud bo'ladi. Ularning maqsad -muddaolari orzu istaklari, manfaatlari ham turlichadir.

Jamiyatda fikrlar xilma-xil bo'lgani va bir-biridan farq qilganidek g'oyalar ham turli tuman bo'lib, mohiyatiga, o'z o'z oldiga qo'ygan maqsadi va qaysi ijtimoiy guruhlarining manfaatiga xizmat qilishiga qarab bir-biridan farq qiladi. G'oya bilan milliy g'oyaning bir-biriga o'xshamasligi va ular o'rtasida farq bo'lishini tabiiy jarayon deb qarash kerak. Qaysi ijtimoiy qatlamning maqsadini ifodalashi va kimlarning manfaatiga xizmat qilishiga, qanday yo'nalishga egaligiga ko'ra ham g'oyalar rang-barang bo'lishi mumkin. Lekin, g'oya va mafkuralarning xilma-xilligi va bir-biridan farq qilishi tabiiy jarayon sifatida qaralishi bilan birga, ularni bir-biriga yaqin mushtarak tomonlari, ayni paytda bir-biriga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan jihatlari ham mavjud.

Jamiyat turli qatlamlar, yo'nalishlar va darajalardan iborat bo'lganidek, mafkura ham ular manfaatlarini ifoda etmog'i lozim. Zero, dunyodagi har bir davlatning, xalq va millatning, jamiyatning maqsad va manfaatlarini ifodalaydigan o'ziga xos g'oyasi va mafkurasi mavjud. Mamlakatda ilg'or g'oyalar, qarashlar turli tuman bo'lsa, ya'ni ma'furaviy plyuralizm hukmron bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. Fikrlar erkinligi va xilma-xilligi mafkuralarning mazmun jihatidan boyishiga, bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi.

Islahotlar jarayonida Respublikada yangi demokratik siyosiy tizimning asoslari yaratildi. Bu tizim siyosiy tashkilotlarning, mafkura va fikrlarning turli – tumanligi asosiga qurilgan bo'lib, davlat va jamiyatni boshqarishda fuqarolarning keng ishtirokini t

a Shu ma'noda uzoq yillik kommunistik mafkura hukmronlik qilgan kezlarda jamiyatimiz uchun milliy g'oya va mafkurani shakllantirish va rivojlantirish uchun turli to'siqlar hamda g'ovlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish lozim edi. Bu xususda I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida XX asrning 80 yillari oxirida sobiq sovet jamiyatidagi g'oyaviy, ma'furaviy holat haqida quyidagilarni qayd etadi: "Shuni e'tirof etish kerakki, qayta qurish boshlanganiga 5 yil bo'ldi, biroq hali ham ma'furaviy faoliyatning bus-butun va mukammal konsepsiyasiga ega emasmiz. Partiya rahbarlari mafkura masalalari xususida ko'p gaprimoqdalar. Lekin gap ko'p-u, ko'mir dz deganlaricha bor"[18].

i Bu borada mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridayoq Islom Karimov: «Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski ma'furaviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning Hurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol]

insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda» - degan edilar. Yurtboshimiz tashabbusi bilan xalqimiz o'z oldiga "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat" ga o'tish maqsadini qo'ydi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun, yurtimizda demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun bizga yot va begona g'oyalar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish lozim edi. Bu yo'lda g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy istiqlool mafkurasini shakllantirishni davrning o'zi taqozo etdi.

Shu o'rinda Islom Karimov mafkuraga shunday ta'rif bergan edilar: "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman"[19]. Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

Agar uzoq va yaqin o'tmishimizga nazar solsak, bugungi yuz berayotgan ma'naviy, ma'rifiy o'zgarishlar, islohotlarning ijobiy natijalariga I.A.Karimov boshchiligidagi mustaqillikning ilk kunlaridayoq tamal toshi qo'yilgan edi. Shunday masuliyatli paytda mafkura masalalariga qo'l urish va bu xususda bahs yuritish katta jasorat va tinimsiz mehnatni talab etdi. Jamiyatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri esa, o'z g'oyaviy hamda mafkuraviy qarashlariga ega bo'lgan ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan buyuk milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yetkazishdan iborat edi. Bu esa fuqarolik jamiyatining uzviy qismi sifatida e'tirof etildi.

Zero, jamiyatimizda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish bizningcha quyidagi omillarga tayanadi:

Birinchidan, milliy g'oya to'g'risidagi mavjud qarashlarga, nazariyalarga hamda mamlakatimizning davlatchiligi, xalqimizning tarixiy ma'naviy merosi, boy qadriyatlariga, buyuk allomalarimiz va mutafakkirlarning qarashlariga tayanadi.

Ikkinchidan, mustaqillik yillarida shakllangan milliy ma'naviyatimiz to'g'risidagi muhim konseptual g'oyalar va qarashlarga, unda O'zbekistonning o'ziga xos mafkuraviy taraqqiyoti, hamda xususiyatlariga tayanadi.

Uchinchidan, jamiyatimizda milliy g'oyani shakllantirishning yana bir muhim jihati shundaki, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rnini, o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari ham muhim o'rin tutadi.

Natijalar. Demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish obyektiv zaruriyat va oliy maqsadimiz bo'lib, bu jarayon uzoq davom etadigan ijtimoiy-siyosiy hodisadir. "Mustabid tuzum asoratlaridan qutilishga qaratilgan sa'yi-harakatlarimiz endigina o'z natijasini berib, demokratik islohotlar samarasidan foydalanish keng tus olayotgan bugungi kunda, demokratik jamiyat siyosiy tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish va bu jarayonni shoshma-shosharlik bilan emas, bosqichma-bosqich tadrijiy ravishda amalga oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda"[20], - deya qayd etadi faylasuf olim Sh.To'rayev.

Jamiyatimizda milliy g'oyani shakllanishi ijtimoiy hayotimizning biron-bir sohasi bilan chegaralanib qolmaydi. Ayniqsa unda fuqarolik jamiyati qurishning o'ziga xos xususiyatlari,

bunda jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotidagi tub o'zgarishlar, milliy ma'naviyatimiz, tariximiz, madaniyatimiz, dinimiz, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlar asosiy o'rin egallaydi.

Insoniyat hayotida g'oyaga qarshi - g'oya, jaholatga qarshi - ma'rifat tamoyili muhim o'rin tutishini Islom Karimov 1998 yili "Tafakkur" jurnali bosh muharriri bergan savollariga javobda, tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda bu masalaga diqqat bilan e'tibor berib, «g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin» degan shior o'rtaga tashlandi. Bu masala g'oya va mafkura tushunchasida ham muhim o'rinda turadi.

Yot g'oyaga qarshi biz o'z olijanob g'oyamizdan maktablarimizda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida, jamiyatimizning barcha qatlamlarida bizga mutlaqo begona bo'lgan zaharli intilishlarga, huruj va harakatlarga qarshi chiqishimiz lozim. Bunda eng muhim masalalardan biri odamlar o'z fikrini aytishga, erkin fikrlashga o'rganishi kerak. Ya'ni ularda fikrga qarshi fikr bo'lishi zarur. Shu bois yoshlarimizni maktab va oliy o'quv yurtlarida erkin fikrlashga, baxslashishga o'rgatishimiz kerak. Uchinchi masala - jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyili. Bu o'rinda asrimiz boshida xalqni ma'rifat va milliy uyg'onishga chorlagan jadidchilik harakati namoyandalari hayotini, ijodini, intilishlarini o'rganish, ularning bugungi kundagi mohiyati va ahamiyati haqida ham gapirishimiz zarur.

Mazkur tamoyilga ko'ra g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashga intilish xissi inson qalbidagi e'tiqod, odam ongidagi dunyoqarash o'z-o'zini himoya qila olish qobiliyatidan dalolat beradi. Bunday kurash usuli, ayniqsa bugungi kunda, insoniyat taraqqiyot borasida juda ilgarilab ketgan XXI asrda g'oyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Professor I. Ergashev qayd etganidek, eng kuchli qirg'in qurollari ishlab chiqilgan, sayyoramizni bir necha marta yo'q qilib yuborishga qodir bo'lgan yadroviy bombalar zahirasi to'planib qolgan paytda o'zaro zo'ravonlik va jaholatga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu boisdan ham mafkuraviy immunitetni shakllantirish xususiyatlari ogohlik, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olish ko'nikmalaridir. Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur». Ushbu vazifani milliy istiqlol g'oyasi bajaradi- deya qayd etadi.

I.A.Karimov "Millatni asrash kerak" degan g'oyani ilgari surdilar. Millatni asrash - o'zligimizni, odob-axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish degan ma'noni anglatadi[21]. Mafkuraviy immunitetni hosil qilish uchun sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifasi esa xalqimizda milliy e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirishdan iborat.

Milliy g'oyani fuqarolik jamiyati qurishda tutgan muhim o'rni shundan iboratki, fuqarolarga, ayniqsa yoshlarga xalqimizning milliy-ma'naviy negizlari, ya'ni milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari, uning o'ziga xosligi, mazmuni hamda mohiyati, asosiy tamoyillari, hozirgi mafkuraviy xurujlar sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi, bunyodkor va vayronkor g'oyalarga qarshi kurashning zarurati, bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni singdirishdan iborat.

I.A.Karimov 2000 yil iyun oyida "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida milliy istiqlol mafkurasining mohiyati, ahamiyati, uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslari to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bayon etgan edilar. Shu boisdan I.A.Karimov farmoni bilan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" maxsus fan sifatida ta'lim tizimining barcha bosqichlariga kiritildi.

Milliy g'oya insonlarning tinchlik, taraqqiyot va farovonlik manfaatlari ifodasi. Milliy g'oya har bir xalqning o'ziga xos xususiyati, madaniy tarixiy tajribasi, mentaliteti, o'ziga xos turmush tarzi zaminida tug'iladi. Milliy g'oya davlatni avvalo tinchlik, barqarorlikka, so'ngra taraqqiyot sari ildam qadam tashlab ulkan natijalarga erishishga undaydi.

O'zbekistonda milliy g'oya maqsad va mohiyatining to'g'ri belgilanganligini o'tgan tariximiz isbotlab bermoqda. Shu o'tgan davr mobaynida fuqarolarning davlat va jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarga daxldorlik hissi kuchaydi. Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida Ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas fikriga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur.

Darhaqiqat, xalqimizni turli mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini o'zida chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarurligi uqdirilmoqda. Fuqarolarimiz, avvalo yoshlar mustaqil dunyoqarashga ega bo'lib, ularda milliy istiqlol g'oyalarini chuqur anglash hissi shakllansa, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Bunda biz har qanday g'oya tashviqotchisi inson orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatishini doimo nazarda tutishimiz kerak.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda milliy g'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim ilmiy nazariy hamda falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalari insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Shu boisdan milliy g'oya bizga suv va havodek zarur.

Shu bilan birga, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda oila, mahalla, ta'lim tizimi va boshqa tuzilmalar ham muhim o'rin tutadi. Hozirgi g'oyaviy tahdidlar sharoitida mafkuraviy tahdidlar hamda ularga qarshi kurashish yo'llari, mafkuraviy bo'shliq, mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan birga, fuqarolarda milliy g'urur, milliy iftixor, vatnaparvarlik tuyg'ularini shakllantirishdan iborat. Fuqarolik jamiyati qurish sharoitida fuqarolar ongida tarixiy merosimiz, ma'naviy qadriyatlarimiz, muqaddas dinimizga hurmat hissini shakllantrishda ham o'z aksini topadi.

O'zbekiston ko'p millatli davlat. Jamiyatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhim o'rin tutadi. Albatta mamlakatimizda yashayotgan xalqlarning ham o'z dunyoqarashi, milliy mentaliteti, g'oyaviy va diniy qarashlari mavjud. Shu boisdan biz shakllantirayotgan milliy g'oya o'z mazmunida boshqa xalqlarning ham qiziqishlarini, orzu intilishlarini, maqsad va muddaolarini o'zida aks ettiradi. Shu boisdan bir qancha tamoyillarga tayanuvchi milliy g'oya zamirida millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik tamoyilining aks etishi, uning umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi, xalqchil fuqarolik jamiyati mafkurasi ekanligidan dalolatdir[22].

Demak, biz shakllantirayotgan g'oya mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolarning tili, dini, millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar g'oyaviy jihatdan

birlashtirishga va tarbiyalashga xizmat qiluvchi fuqarolik jamiyati g'oyasi va mafkurasidir.

Bizningcha uning eng muhim belgilari quyidagilardir: Milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analirimizni anglashga yordam berishi, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'ygan oliy maqsad va vazifalarini qamrab olishi shart; Mafkuraviy plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi, sharoitida turli millatlar va ijtimoiy toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini mushtarak bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan milliy mafkuradir; Milliy mafkura har qanday tajavvuzkorlik va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat qozonishda poydevor bo'lishi lozim; Milliy g'oya, birinchi navbatda, yosh avlodni vatanparvarlik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga milliy-ma'naviy qadriyatimizga xos fazilatlarni shakllantirishda asos bo'ladi.

Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g'oyaning ahamiyati bizning ham ichki, ham tashqi siyosatimiz istiqbollari, samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois milliy g'oyaning ahamiyati jamiyatimizni taraqqiy topgan demokratik mamlakatlardagi kabi erkin va farovon hayot barpo etishida muhim rol o'ynashi shubhasiz. Shu boisdan, milliy g'oyani shakllantirish negizidagi muhim ustivor maqsad bu – erkin fuqarolik jamiyatini qurish bo'lib qolaveradi.

Xulosa

Ma'lumki bugungi kunda dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga intilayotgan har bir davlat o'z fuqarolari uchun munosib yashash sharoitlarini yaratishga, jamiyatdatlarda umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga tayanuvchi ma'lum demokratik tamoyillarga amal qilinishi hech kimga sir emas. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng fuqarolik jamiyatini qurishning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanladi. Albatta u uzoq yillik tarixiy an'analarga ega. Eski jamiyatdan voz kechib erkin fuqarolik jamiyatiga o'tish ma'lum an'analari asosida shakllangan bo'lsada, bizning jamiyatimizda bugungi kunda butunlay yangi tarixiy sharoitlarda, jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p ming yillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmokda. Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy hukuqiy faollik, qat'iy intizom uyg'unligida fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.

Xulosa qilib shuni qayd etish lozimki, milliy g'oya yurtimizda yashayotgan har bir millat, ijtimoiy guruh, din, partiya yoki qatlam vakillari uchun ustuvor ma'naviy omil ekanligiga alohida urg'u berilishi lozim. Zero, u ko'pmillatli O'zbekiston xalqining, mustaqillikni mustahkamlash yo'lidan dadil borayotgan jamiyatimizning umumiy g'oyasidir. Uning o'ziga xosligi, mazmuni hamda mohiyati, asosiy tamoyillari, hozirgi mafkuraviy xurujlar sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi, bunyodkor va vayronkor g'oyalarga qarshi kurashning zarurati, bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni singdirishdan iboratligi tobora oydinlashmoqda.

Mustaqil davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri esa, o'z g'oyaviy hamda mafkuraviy qarashlariga ega bo'lgan ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan buyuk milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yetkazishdan iborat. Bu esa shubhasiz fuqarolik jamiyati qurishning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. 80-b
2. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
3. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Ab-u Ali ibn Sino nashriyoti, 2001.
4. Jalilov A. O'zbekiston: mustaqillik, ma'naviyat, mafkura. – Toshkent: O'zbekiston, 1994.
5. Sofnazarov I. Istiqlol va istiqbol. – Toshkent: Mehnat, 1996.
6. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
7. Jumaniyozov R., Salimov S. G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'atn. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
8. Karimova V., Umarov A., Quronov M. Milliy istiqloq g'oyasining xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
9. Nazarov Q. Milliy istiqloq g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
10. Ortiqov M., Usmonov M. G'aya va mafkura. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
11. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyani jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
12. Salimov S., Davronov Z. Jamiyat, shaxs va ma'naviyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
13. To'rayev B., Ramatov J. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
14. Ergashev I., Xudoyberdiyev X., Qahramonov A. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
15. Erkayev A. Mo'minov A., Qahramonov A. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
16. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 271 bet.
17. Qahramon Rajabov, Feruza Amonova, Bahodir Qandov. O'zbekiston tarixi. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – Toshkent: Ochiq, 2025. - 528 bet.
18. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 220 bet.
19. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. T.7. – Toshkent: "O'zbekiston", 1999. 89-bet.
20. To'rayev Sh.S. O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirishda milliy g'oyaning ahamiyati. // f.f.n. diss. – Toshkent: 2007. – 104 bet.
21. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. – Toshkent: Akademiya, 2005. – 78-bet.
22. Tolipov F, Boymurodova Z va boshqalar. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar (Ma'ruzalar matni). – T., 2013.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, sentyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

ISBN-978-9910-09-362-3

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.